

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marralari.....	132
M.Kenjayeve	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari.....	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvdagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 930.85(575):305-055.2

RAHIMA AMINOVANING XOTIN-QIZLAR IJTIMOYLASHUVIDAGI ILMIY IZLANISHLARI

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ РАХИМЫ АМИНОВОЙ В ОБЛАСТИ ЖЕНСКОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ

SCIENTIFIC RESEARCH OF RAHIMA AMINOVA IN THE FIELD OF WOMEN'S SOCIALIZATION

Abdullayev Bekzod Xusniddin o'g'li 

Andijon davlat universiteti, tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada taniqli tarixchi olimi Rahima Aminovaning O'zbekiston tarixshunosligiga qo'shgan hissasi, xususan, ayollar ijtimoiylashuvi va ularning jamiyatdagi o'rni borasidagi ilmiy izlanishlari yoritilgan. Muallif Aminovaning ilmiy merosi orqali sobiq SSSR davrida o'zbek ayollarining mehnati, ijtimoiy cheklavlari hamda huquqiy holatini tahlil qilgan. Ayniqsa, "Qayta qurish sharoitida O'zbekistonda soqal rivojlanishning dolzarb muammolari" nomli asari asosida ijtimoiy adolatsizlik, hududlararo tafovut va ayollar mehnatining qadrsizlanishi kabi masalalar ochib beriladi. Rahima Aminovaning xalqaro anjumanlardagi ishtiroki, ingliz tilini mukammal bilishi hamda ilmiy maktab yaratgani alohida ta'kidlanadi. U tomonidan etishtirilgan shogirdlar, nashr etilgan asarlar bugungi tadqiqotchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Maqola Rahima Aminovaning tarixiy merosini bugungi zamon bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье освещается вклад известного узбекского историка Рахимы Аминовой в развитие отечественной историографии, особенно в вопросах социализации женщин и их роли в обществе. Автор раскрывает научное наследие Аминовой, в частности, её анализ положения женщин в условиях бывшего СССР, а также правовые и социальные ограничения, с которыми сталкивались узбекские женщины. Особое внимание уделено труду «Актуальные проблемы социального развития в Узбекистане в условиях перестройки», в котором рассмотрены социальная несправедливость, региональные различия и обесценивание женского труда. Отмечается участие Аминовой в международных конференциях, её владение английским языком и вклад в подготовку научных кадров. Её многочисленные труды и воспитанные ученики служат ценным источником для современных исследователей. Статья подчёркивает значимость научного наследия Рахимы Аминовой для современного и будущего развития исторического сознания.

Abstract

This article explores the contribution of renowned Uzbek historian Rahima Aminova to national historiography, particularly her research on women's social integration and their role in society. The author highlights Aminova's scholarly legacy, including her analysis of the legal and social limitations faced by Uzbek women during the Soviet era. Special attention is given to her publication "Urgent Problems of Social Development in Uzbekistan during Perestroika", which addresses issues such as social injustice, regional disparities, and the undervaluation of women's labor. Aminova's active participation in international conferences, her fluency in English, and her role in mentoring young scholars are emphasized. Her extensive academic work and the scholars she trained continue to serve as a valuable resource for contemporary researchers. The article underlines the lasting relevance of Rahima Aminova's academic legacy and its importance in shaping both current and future understandings of historical and social development in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Rahima Aminova, O'zbek ayollari, ijtimoiylashuv, qayta qurish, tarixshunoslik, ayollar huquqlari, ilmiy meros, sovet davri

Ключевые слова: Рахима Аминова, узбекские женщины, социализация, перестройка, историография, права женщин, научное наследие, советский период

Key words: Rakhima Aminova, uzbek women, social integration, perestroika, historiography, women's rights, academic legacy, Soviet era

KIRISH

Inson ma'naviyatining kamolotga etishishda eng katta ta'sir ko'rsatuvchi va avlod dunyoqarashining ma'lum yo'nalish olishida muhim o'rin tutuvchi oila, jamiyat a'zosi bo'lgan ayol qanday zamon, qanday holat bo'lganda ham jamiyatda o'z o'riniga ega bo'lgan. Bunga yorqin misollar sifatida tarixdan buyuk bobokalonimiz Amir Temur yonida turmush o'rtoq, oqila maslahatdosh bo'lgan Bibixonim, shoira, vafodor ayol siymosi egasi Nodirabegim va yana shunday ko'plab ayollarni olishimiz mumkin.

TARIX

Lekin, Sobiq SSSR davrida o'zbek ayollariga jamiyat a'zosi sifatida emas, kolxozning oddiy ishchisi sifatida omi xalq sifatida qaralgan. Shuning hisobiga juda ko'plab ayollar xattoki o'zlarini yoqish darajasigacha borishgan [1;12-bet].

Mana shunday zamonda ayollarning jamiyatda o'rnini tiklashda salmoqli ishlar olib borgan ajdodlarimizga munosib izdosh Rahima Aminova ko'plab izlanishlar xattoki dunyo bo'yicha e'tirof etilishiga sazovor bo'lgan olimadir.

MATERIALLARNI OLISH TEXNOLOGIYASI VA TADQIQOT USULI

Rahima Hodiyeva Aminova (1925-yil 18-noyabrda Qo'qonda tug'ilgan)-taniqli o'zbek sharqshunos va tarixchi olimi. U 1949-yilda O'rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU)ning Sharq fakultetini tamomlagan. Ilmiy faoliyati davomida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix va arxeologiya institutida ilmiy xodim, bo'lim mudiri va etakchi ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan. 1963-yilda tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olgan va 2000-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi etib saylangan. Aminovanning ilmiy ishlari O'zbekistonda sanoat ishchilari tarixi, agrar masalalar va xotin-qizlar harakati kabi mavzularga bag'ishlangan. U 1985-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoniga sazovor bo'lgan va 1968-yilda Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Rahima Aminova 15 nafar fan doktori hamda 60 dan ortiq fan nomzodlarini etishtirgan. Uning nashr qilgan asarlari 300 dan ortiq nomda bo'lib, 14 tasi yirik monografik tadqiqot ekanligi olimaning ilmiy qiziqishlari doirasi kengligi, ijodiy iste'dodi ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston tarixi fani yutuqlarining tolmas kurashchisi R.Aminovanning nafaqat O'zbekistonda, bir qancha xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda qilgan dolzarb mavzudagi keng qamrovli, ilmiy teran va yuksak darajadagi ma'ruzalari ingliz tilida ravon, notiqlik madaniyati bilan bayon etilishi, sharqona odob va madaniyat doirasida o'zini tutishi jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuqori baholangan. Rahima Aminovadek fidoyi olimalar respublikamizda ilm-fanning ildizlari baquvvat va sog'lom bo'lishiga ulkan hissa qo'shgan [2; 64-bet].

EKSPERIMENTAL NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

R.H. Aminova ijtimoiy masalalarni imkon qadar tez o'rganish hamda ijobiy hal qilish maqsadi edi. Shunga qaramay, Raxima Aminova o'zining tadqiqot ishlarida keng fikr yurita olardi. Ingliz tilini mukammal bilishi tarixchi olim va olimalar orasida kam-kam uchraydigan holatlardan biri edi va chet el sovetologlarining ilmiy izlanishlari haqida barcha ma'lumotlarni tarjima qila olardi. Shu sababdan ham Markaziy Osiyo tarixida "Oktyabr va O'zbekistonda xotin-qizlar muammosini hal qilish" mavzusini birinchi bo'lib tahlil qilishga erishdi. Bu ilmiy izlanishda ayollarni huquqiy, ijtimoiy yoki siyosiy cheklavlardan ozod qilishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida keng qamrovli faktlar keltirilgan. Ko'plab olimlar tomonidan kitoblar yozish orqali tahlil qilingan ayollarning ijtimoiylashuv muammolari Raxima Aminova o'z monografiyasi yozish orqali buni amalga oshira oldi. O'zbek xotin-qizlarini sanoatdagi ishlab chiqarishning turli sohalariga jalb qilishning foydalari va ishlaydigan ayollar sonini oshirib borish, Sovet hokimiyati davridagi xalq xo'jaligida ayollar mehnatidan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari haqida so'z yuritilgan. Bu esa, qishloq xo'jaligidagi ayollar muammolarini bilish unga to'g'ri baho berishga imkon berdi ayollarni ozod qilishda hamkorlikning rolini ko'rsata oldi, ayollarni o'qitishning samarali ekanligi, ayollarni jamoat ishlariga jalb etish, nafaqat ularni ta'minlash mustaqillik, balki ularning shakllanishiga ham hissa qo'shdi va ularni dunyoqarashini oshirdi [3; 262-bet].

Sovet ittifoqining so'nggi yillarida boshlangan qayta qurish (perestroyka) siyosati jamiyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlar yasashni maqsad qilgan bo'lsa-da, u ko'plab ziddiyat va murakkabliklarga ham sabab bo'lgan. Ayniqsa, ittifoqdosh respublikalarda, jumladan, O'zbekistonda bu siyosatning ijobiy va salbiy jihatlari tarixiy va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur tahlilga muhtoj edi. Ana shunday murakkab davrda Rahima Aminova o'zining 1991-yilda chop etilgan "Qayta qurish sharoitida O'zbekistonda social rivojlanishning dolzarb muammolari" nomli risolasi bilan bu bo'shliqni to'ldirdi.

Mazkur risolada Rahima Aminova nafaqat mavjud holatni tanqidiy baholagan, balki social rivojlanishdagi chuqur tizimli muammolarni fosh etgan. Asarda O'zbekistondagi ijtimoiy adolatqizliklar, iqtisodiy tengsizlik, mehnatkashlar holati, ayollar mehnatining qadrsizlanishi kabi muammolar batafsil yoritiladi. U sobiq SSSR rahbariyatining respublikalarda olib borayotgan social siyosatini tahlil qilar ekan, uni faqat yuqoridan berilgan shiorlar bilan emas, balki real hayotiy misollar orqali baholagan [1;12-bet].

Rahima Aminova qayta qurish siyosatining asosiy maqsadlaridan biri – jamiyatda ochiqlik va demokratiyani joriy qilish ekani haqida yozar ekan, bu siyosat O'zbekistonda ancha sekin va sathiy tus olganini ta'kidlaydi. U respublikadagi madaniy va moddiy farovonlik darajasi, ish haqlari va hayot sharoitlari Markaziy hududlar bilan taqqoslaganda ancha past ekani, ayollarning social himoyasi etarli emasligini ochiq yozgan. Bu holatni u statistika, iqtisodiy ko'rsatkichlar va o'zining uzoq yillik ilmiy tajribasiga asoslanib isbotlaydi [4].

Risolada shuningdek, quyidagi muhim jihatlar ham alohida e'tibor bilan ko'rib chiqilgan:

1. **Milliy daromad taqsimotidagi adolatsizlik:** Aminova O'zbekiston sobiq SSSRda ishlab chiqarilgan milliy boyliklarning katta qismi markazga yuborilishi, mahalliy ehtiyojlar ikkinchi planga tushib qolganini tanqid qiladi.

2. **Social siyosatdagi rasmiyatchilik:** Qayta qurish siyosati doirasida qabul qilingan qarorlar mahalliy darajada qog'ozda qolib ketganini ko'rsatib beradi.

3. **Ayollarning rolini tiklash masalasi:** Bu risolada ayollar mavzusi muhim o'rin egallaydi. Rahima Aminova o'zining boshqa asarlaridagi singari, bu erda ham o'zbek ayollarining mehnatga jalb qilinishi, lekin ular huquq va imkoniyatlarining cheklanganligini chuqur tahlil qiladi [5; 48-bet].

4. **Hududlararo tafovut:** Markaziy va viloyat hududlar o'rtasidagi infratuzilma, tibbiyot, ta'lim va madaniyat darajalaridagi tafovutlar haqida dalillarga asoslangan tahlil beriladi [6; 63-bet].

Rahima Aminovanning bu risolasi o'zbek tarixshunosligida qayta qurish davrining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarini real hayot bilan bog'liq tarzda ko'rsatgan kam sonli asarlardan biridir. U nafaqat tarixiy jarayonlarni, balki social ongdagi o'zgarishlarni ham tushuntirishga harakat qiladi. Mazkur asar bugungi tadqiqotchilar uchun ham nafaqat tarixiy manba, balki ijtimoiy tahlil uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Rahima Aminova olib borgan ilmiy izlanishlari faqat o'zbek olimlari tomonidan emas, balki xorijiy olimlarning ham nazariga tushgan bo'lib, ko'plab tarixshunos olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida e'tirof qilingan [7. 4-bet; 8. 318-bet; 9. 505-bet; 10.].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Rahima Aminovanning ilmiy merosi o'zbek tarixshunosligida ijtimoiy, siyosiy va madaniy masalalarga yangicha yondashuvni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. U o'zining chuqur tahlillari, keng ilmiy doirasi, xalqaro miqyosdagi faoliyati hamda xotin-qizlar masalasiga oid dolzarb masalalarni yorqin ifodalashi bilan ajralib turadi. Sobiq SSSR davridagi siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilgan holda, o'zbek ayollarining jamiyatdagi o'rnini tiklash, ularning huquqiy va ijtimoiy holatini yaxshilash yo'lida olib borgan izlanishlari bugungi kun uchun ham dolzargligini yo'qotmagan.

Aminovanning "Qayta qurish sharoitida O'zbekistonda social rivojlanishning dolzarb muammolari" nomli risolasi o'zbek tarixshunosligida ijtimoiy adolatsizlik, ayollar mehnatining qadrsizlanishi, milliy boyliklarning adolatsiz taqsimlanishi va hududlararo tafovutlar kabi masalalarni chuqur tahlil qilgan kam sonli fundamental ishlardan biridir. U o'z asarlarida tarixiy jarayonlar va ularning jamiyatdagi aksini real misollar bilan asoslagan, ayollar ijtimoiylashuvi va huquqlarining kengayishini tarixiy jarayonlar bilan bog'lab tahlil qilgan.

Rahima Aminova o'zining ilmiy fidoyiligi, notiqlik madaniyati, ingliz tilini mukammal bilishi, xalqaro anjumanlardagi ishtiroki bilan nafaqat o'zbek, balki jahon tarixshunosligida o'ziga xos iz qoldirgan olim sifatida e'tirof etiladi. U tomonidan etishtirilgan fan nomzodlari va doktorlar, yozilgan yuzlab maqola va monografiyalar hozirgi tadqiqotchilar uchun qimmatli ilmiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, Rahima Aminovanning boy ilmiy merosi hozirgi va kelajak avlod olimlari uchun na'muna, ijtimoiy ong va tarixiy xotirani tiklashda muhim asos bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Р.Аминова "Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишининг долзарб муаммолари" рисоласи. Тошкент 1988.
2. Собирова Д. Т., Махмудов С. СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ФАОЛИЯТ КЎРСАТГАН ХОТИН-ҚИЗЛАРГА ДОИР МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИ //ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР НОМИДАГИ АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ. – С. 64.
3. Тангирова Н. Первые узбекские женщины-историки и ученые //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 10/S. – С. 261-265.
4. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
5. Akramova S. O'zbek tarixshunosligida ayollar mavzusi: R.Aminova merosi asosida. // "O'zbekiston tarixi" jurnali, 2020, №2. – B. 45–52.

TARIX

6. Islomov Q. Tarix fani taraqqiyotida R.Aminovanning o'rni. – "Sharqshunoslik" ilmiy jurnali, 2015, №3. – B. 60–66.
7. Melentev D.V. Women's Departments in Central Asia in the 1920s: Methods and Results of the Campaign for Muslim Women's Emancipation // Dissertation Summary for the purpose of obtaining academic degree Doctor of Philosophy in History. Moscow-2024. –B. 4.
8. Horne S. G. et al. Not staying home: The experience of Uzbek women crisis counselors and therapists //Women & Therapy. – 2009. – T. 32. – №. 4. – C. 317-337.
9. Kamp M. Where did the Mullahs go? Oral histories from rural Uzbekistan //Die Welt des Islams. – 2010. – T. 50. – №. 3. – C. 503-531.
10. Kamp M. Soviet Collectivization in Central Asia //Oxford Research Encyclopedia of Asian History. – 2022.